



1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan

Fidoyilik —  
Vatanga xizmat demak!

2025-yil 25-yanvar, shanba,  
10 (24.036)-son

O'zbek xalq  
maqoli

Bir kalla -  
kalla,  
ikki kalla -  
tilla

# Zarafshon

www.zarnews.uz https://www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews\_uz https://twitter.com/zarnews\_uz

Xalq deputatlari viloyat  
Kengashi raisining Farmoyishi

## Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining navbatdagi yettinchi chaqiriq oltinchi sessiyasini chaqirish to'g'risida

"Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 162-moddasiga asosan, xalq deputatlari viloyat Kengashining navbatdagi yettinchi chaqiriq oltinchi sessiyasi **2025-yil 27-yanvar** kuni chaqirilsin.

Sessiya kun tartibiga quyidagi masalalar kiritilsin:

- viloyatni ishsizlik va korrupsiyadan xoli hududga aylantirish hamda "Obod xonadon", "Obod ko'cha" va "Obod mahalla" mezonlarini joriy etishda sektorlar rahbarlari tomonidan "mahallabay" va "xonadonbay" ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida;

- viloyatning 2025-yilda jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i bo'yicha o'rnatilgan soliq stavkalariga kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni, soliqni qat'iy belgilangan miqdorlarda soliq to'lovchilar uchun belgilangan eng kam va eng yuqori stavkalari (diapazon) doirasida hududlar kesimida miqdorlarni va mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar ijara to'lovining eng kam stavkalarining oshiruvchi koeffitsiyentlarini tasdiqlash to'g'risida;

- Nurobod tumanidagi aholi punkti nomini o'zgartirish to'g'risida;

- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024-yil 29-noyabrda "Kambag'allikni qisqartirish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalarning bajarilishini nazorat qilish chora-tadbirlari to'g'risida" KQ-6-V-son qarori ijrosi to'g'risida;

- Jahon banki kredit mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan "Mikro, kichik va o'rta biznes korxonalarida ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatishda "yashil" va energiya samarador texnologiyalarni joriy qilishni moliyaviy qo'llab-quvvatlash" loyiha konsepsiyasini kelishish to'g'risida;

- viloyatda "Saudiya taraqqiyot jamg'armasi" mablag'lari hisobidan rekonstruksiya qilinadigan avariya holatidagi ko'priklar inshootlari manzilli ro'yxatini ma'qullash to'g'risida;

- xalq deputatlari viloyat Kengashining 2025-yil uchun mo'ljallangan ish rejasini tasdiqlash to'g'risida;

- viloyat hokimligining yangilangan tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash to'g'risida;

- viloyat hokimining ayrim qarorlarini tasdiqlash to'g'risida;

- boshqa masalalar.

Kengash raisi

Sh.NEGMATOV

2025-yil 23-yanvar

### Kecha Payariq tumani hokimligida viloyat sektor rahbarlarining navbatdagi sayyor qabuli o'tkazildi.

Mazkur sayyor qabul Payariq, Qo'shrabot, Oqdaryo, Jomboy va Bulung'ur tumanlari aholisi uchun tashkil etildi.

Viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi Adiz Boboyev rahbarligida o'tkazilayotgan qabulda soat 10:00 holatida 74 nafar fuqaro ro'yxatga olindi.

Sayyor qabulda fuqarolarning ishga joylashish, sog'lig'ini tiklash, elektr energiya, tabiiy gaz, kadastr, uy-joy uchun qurilish materiallari olish, uy-joyga egalik qilish va boshqa turli murojaatlari tinglanib, muayyan qismi joyida hal etildi, qolganlarining yechimi yuzasidan mas'ullarga aniq topshiriqlar berildi.

- Payariq tumanining Go'zal mahallasida yashayman, bir kuyovim bevaqt vafot etib, gulday qizim bir o'g'ul, bir qiz bilan yolg'iz qoldi. Uyi sovuqligi sabab qishda beton devorlar va beton shift nabiralarning yashashi uchun sovuqlik qilayot-

## FUQAROLAR MUROJAATI TINGLANDI



Sayyor qabul

gani sabab murojaat bilan keldim, tomorqasining chetidan kichiklana bo'lsa ham bir imorat qurib olsa, - deydi fuqaro Zarbuvi Turg'unboeva. - Bu yerga kelib xotirjam

bo'ldim, viloyat rahbarlari qizimning uy qurishiga yordamlashishini aytdi, ko'nglim taskin topdi.

Sayyor qabulda Zarbuvi opa kabi yuzlab yurtdoshlarimiz uylariga

xotirjam va katta umidlar bilan qaytdi. Chunki ularning o'riqli masalalari tinlanib, yechimi bo'yicha zarur chora-tadbirlar belgilandi.

Azamat TAVBOYEV.

## ZAMONAVIY OPERATSIYALAR SONI AVVALGI YILDAN UCH BARAVARGA OSHDI

Sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan yangilik va o'zgarishlar aholining salomatligini sifatli davolash, ularning og'irini yengil qilishga qaratilgan bo'lib, bu odamlarning davlatga, jamiyatga nisbatan ishonchini ham oshirishga xizmat qiladi. Bugun tizimdagi yirik islohotlar biz, tibbiyot xodimlarining o'tgan o'n yilliklar davomidagi qator rejalarimiz va niyatlarimizning ham ro'yobiga aylandi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Birgina ushbu raqamga e'tibor qarating: o'tgan 2024-yilda yuqori texnologik amaliyotlar 995 tadan 3462 taga, operatsiyalar turi esa, 151 dan 181 ga, operativ faollik 62 foizdan 67,6 foizga oshdi. Bu uzoq yillar davomida qog'ozlardagi taklif va tashabbuslarning amaldagi natijasidir.

Tibbiyotning muhim, birlamchi bo'g'inida bitta oilaviy poliklinika, 4 ta oilaviy shifokorlik punktlari faoliyati yo'lga qo'yildi. Bundan tashqari, ikkita mahalla tibbiyot punkti va 2020 ta mahalla tibbiyot brigadalari tashkil etilib, "xonadonbay" ishlash tizimi yo'lga qo'yildi. Viloyatda mavjud oilaviy poliklinikalarning 43 tasiga UZI va EKG apparatlari o'rnatildi, 8 turdagi yangi tibbiy xizmatlar yo'lga qo'yildi. Bundan tashqari, uchta ko'p tarmoqli markaziy poliklinika, 3 ta oilaviy poliklinika, 16 ta oilaviy shifokorlik punktlari to'liq ta'mirlandi va 15 turdagi asbob-uskunalar bilan jihozlandi.

Yil davomida viloyat tibbiyot muassasalarida 5899 ta yuqori texnologik amaliyotlar o'tkazildi. Shundan, 3 800 nafar chet el fuqarolariga xizmat ko'rsatildi.

Viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazida bir milliard 450 million so'mlik elektron mikroskop o'rnatilib, 35 nafar fuqaroning eshitish xususiyati tiklanishi va bu orqali nogironlik kamayishiga erishildi.

Shuningdek, onkologiya yo'nalishida 27 turdagi ilgari bajarilmagan 5645 ta yuqori-texnologik

jarrohlik amaliyotlari bajarildi. Saratonni erta bosqichlarda aniqlash maqsadida mobil mamograf uskunasi yordamida 45-65 yoshdagi 2 188 nafar ayollar o'rtasida tekshiruvlar o'tkazilib, 29 ta holatda ko'krak bezi saratonni erta bosqichda aniqlandi. Bundan tashqari, uch nafar bemorda autologik suyak ko'migi o'zak hujayralari transplantatsiyasi, 7 nafar bemorda jigar transplantatsiyasi va 98 nafarida buyrak transplantatsiyasi operatsiyalari muvaffaqiyatli o'tkazildi.

Joriy yilda ham tibbiyot tizimidagi o'zgarish va yangiliklar davom etadi.

Jumladan, 16 ta birlamchi tizim muassasalarining tegishli shtat birliklarini ajratgan holda faoliyati qayta tiklanadi. Ya'ni, 5 ta oilaviy poliklinika va 11 ta oilaviy shifokorlik punktlari ochilishi rejalashtirilgan.

Ixtisoslashgan 16 ta markazlarda 10 turdagi yangi davolash va diagnostika usullari joriy etish belgilangan. Qolaversa, 120 nafar shifokorni chet el klinikalarida o'qitish, 100 o'rinni bolalar tibbiy rehabilitatsiya bo'limi tashkil etish, bolalarda buyrak va koxlear, "suyak iligi" transplantatsiyasi

amaliyotlarini joriy qilish bo'yicha amaliy ishlar olib borilyapti.

Jigar va bachadon xavfli o'smalarida intervension radiologik jarrohlik amaliyotlarini yo'lga qo'yish, viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazida ekstrakorporal urug'lanish amaliyoti yo'lga qo'yiladi. 400 nafar fuqarolarda bepul endoprotezlash amaliyotlari bajarish hamda 108 469 nafar nogironligi bo'lgan shaxslarning 6920 nafarini (6.3 foizi) to'liq va qisman reabilitatsiya bilan qamrab olish rejalashtirilgan.

Yaponiyadagi "Sojitz Corporation" va Turkiyadagi "RNS PPP Sosial Altyapi API A.S." korporatsiyasining to'g'ridan-to'g'ri kapitali evaziga Samarqand shahrida 800 o'rinni ko'p tarmoqli klinika tashkil etish rejalashtirilgan. To'rtta tuman markaziy shifoxonasida xususiy tadbirkorlar hamkorligiga 13,5 milliard so'mlik davlat-xususiy sherikchilik yoki autorsoring asosidagi zamonaviy diagnostika markazlarini tashkil etish ishlari maqsad qilingan.

Suhrob ZAYNIYEV,  
viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi boshlig'i.

## Uy-joy mulkdorlar shirkatlari faoliyatidan aholi rozimi?

Aytmasak bo'lmaydi

"Yuksalish" harakati viloyat bo'linmasi tashabbusi bilan viloyatimizning Kattaqo'rg'on shahri, Paxtachi va Toyloq tumanlaridagi uy-joy mulkdorlar shirkatlari va boshqaruv servis kompaniyalari faoliyati Taraqqiyot strategiyasini qo'llab-quvvatlash bo'yicha viloyat jamoatchilik guruhi, O'zbekiston NNTlar milliy assotsiatsiyasi viloyat hududiy bo'linmasi hamda jamoatchilik vakillari tomonidan monitoring qilindi. O'rganish jarayonida ko'p kvartirali uy-joylardagi kommunal xizmatlar, fuqarolarga yaratilgan shart-sharoit ko'zdan kechirilib, qator kamchiliklar aniqlandi.

Ijtimoiy tarmoqlarda Paxtachi tumani Istiqlol mahallasida joylashgan 20-ko'p qavatli uyda yashovchi bir guruh fuqarolar o'zlari istiqomat qilayotgan uyda ichimlik suvi muammo ekanligini bayon qilgandi. Jamoatchilik guruhi aholi bilan uchrashib, masalani o'rgandi.

Ma'lum bo'lishicha, foydalanishga topshirilganiga endigina 3 yil bo'lgan uyda yashovchilar toza ichimlik suvi yetishmovchiligidan

aziyat chekmoqda. Quruvchi tomonidan uning yerto'lasiga 1 tonnalik suv sig'imi o'rnatilgan, ammo bu suv 20 xo'jalik uchun bir soatga ham yetmaydi. Xonadonlar egalari ushbu muammoni aytib, tumandagi bormagan yoki murojaat qilmagan tashkiloti qolmagan. Hatto o'zlari pul yig'ib qo'shimcha 1 tonnalik suv baki o'rnatishgan. Biroq bu idishlar muzlab, yorilib ketmoqda. Kamiga tuman suv ta'minoti tomonidan bel-



gilangan grafik asosida beriladigan suv ham soat 18.00 dan boshlab o'chirib qo'yilmoqda. Oqibatda 20 ta xonadon butunlay suvsiz qolyapti. O'rganishlarda mazkur ko'p qavatli uyda yashovchilar hududdagi "Ziyovuddin Samtexkom xizmati" MChJ uy-joy mulkdorlar shirkatiga a'zo

bo'lmagan ma'lum bo'ldi. Chunki shirkatdagi quruvchilarning chala ishlari ko'pligi sababli kamchiliklarni tuzatishni o'z zimmasiga olishni hohlamayapti.

Kattaqo'rg'on shahri Chinobod mahallasida 2021-yilda "Agromir Buildings" qurilish kompaniyasi tomonidan qurilgan 6 ta ko'p qavatli xonadonlarda ham ahvol yaxshi emas. Jumladan, 94, 95, 96-ko'p qavatli uylarning atrofi chiqindiga to'lgan, yurish yo'laklaridagi qoplamalar yorilgan, bino eshigi ta'mirlanib ahvolda, hovlidagi kafellar cho'kib ketgan. Chiqindi qutilari sindirilgan. Liftlarning faqat bittasi ishlaydi. Yuqori qavatda istiqomat qiluvchilar uylariga mebel jihozlarni olib chiqishning imkoni yo'q. Obodonchilik ishlariga javobgar "Siti Smart" boshqaruv servis kompaniyasi ishchilarining e'tiborsizligi tufayli hovlidagi yoritish chiroqlari yonmaydi. Hatto uy devorlari yorilgan.

Toyloq tumanidagi 6 ta 9 qavatli

uy-joyning foydalanishga topshirilganiga 3 yildan oshib qoldi. "Yangi Toyloq boshqaruv servis" MChJga qarashli uylar atrofidagi hududda sanitariyaga zid holat ko'zga tashlanadi. O'tgan yillar ichida uylarni obodonlashtirish va ta'mirlash ishlariga mahalliy budjetning qo'shimcha manbalari hisobidan biror marta mablag' ajratilmagan. Uylarni bunyod qilgan "Agromir Buildings" qurilish kompaniyasi tomonidan ham 2 yillik kafolat talablari bajarilmagan.

Shuningdek, "Ijtimoiy himoya yagona reestri"ga kiritilgan ijtimoiy himoyaga muhtoj 30 ta oilaga majburiy badalni to'lab berish uchun tuman hokimligiga talabnoma kiritilganligiga qaramay "Temir daftar", "Yoshlar daftar" va "Ayollar daftar" jang'armalari hisobidan subsidiya mablag'lari ajratilmagan. Boshqaruv servis kompaniyasi tomonidan hozirgacha faqat qo'shimcha jihozlarni uchungina mablag' ajratilgan, xolos. Yangi uylar atrofidan obodonlash-

trish-ko'kalamzorlashtirish ishlari qoniqarsiz ahvolda, sug'orish tizimlari ishlamaydi.

Jamoatchilik o'rganishlari yakunlari bo'yicha "Ijtimoiy himoya yagona reestri"da ro'yxatga olingan oilalarga mahalliy budjetning orttirilgan mablag'lari hisobidan majburiy badalni to'lab berish hamda jamoatchilik nazoratini kuchaytirgan holda mazkur hududlarda faoliyat olib borayotgan tadbirkorlik obyektlari, jumladan, savdo do'konlaridan tushayotgan soliqlarni hududlarni obodonlashtirish va tozalash ishlarini olib borayotgan boshqaruv servis kompaniyalari va shirkatlarga sarflanishini ta'minlash yuzasidan huquqiy asos ishlab chiqish zarurligi qayd etildi.

Shuningdek, masalani xalq deputatlari mahalliy Kengash sessiyalarida ko'rib chiqish tavsiya etildi.

Elyor HAMRAYEV,  
"Yuksalish" harakati viloyat bo'linmasi rahbari, viloyat Kengashi deputati.





# ISSIQLIK TIZIMI:

## sheriklik o'zini oqlayaptimi?

**Ikki yildan buyon kuz-qish mavsumida ijtimoiy soha obyektlari davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida tadbirkorlik suybektleri tomonidan isitilmoqda.**

Bugungi kunda Ishtixon tumani-dagi tibbiyot muassasalari ham tabiiy gaz tarmoqlaridan uzilib davlat-xususiy sheriklik asosida, muqobil isitish manbalari orqali isitish tizimi-ga o'tgan.

- Binolarimizni isitish bo'yicha "Ishtixon Bunyodkori" MChJ bilan shartnoma tuzganmiz, - deydi tuman tibbiyot birlashmasi boshlig'i Aziz Xudoyberdiyev. - Hozirda markaziy, Mitan shaharcha shifoxonasi va ko'p tarmoqli markaziy poliklinikadan boshqa barcha muassasalarimizda ko'mirxonalar qurilib, 270 tonna ko'mir va o'tin xazirasi yaratilgan. Biroq isitish tarmoqlarini sinovdan o'tkazishda ancha qiyinchiliklarga duch keldik. 30 ga yaqin davolash-profilaktika muassasamizdagi talabga javob bermaydigan eski isitish batareyasi va pechlar o'rnida zamonaviy isitish tizimlari o'rnatildi.

O'tgan yili Qo'ng'iro't shifokorlik xizmati uyi oilaviy shifokorlik poliklinikasiga aylantirilgan edi. Eski bino buzilib, o'rnida 8 mingdan ziyod aholiga tibbiy xizmat ko'rsatuvchi zamonaviy poliklinika qurilgan bo'lsa-da, hanuzgacha poliklinika maqomi berilmagan. Hududdagi 10 ta qishloq aholisiga tibbiy xizmat ko'rsatuvchi tez yordam shoxobchasi yo'q.

Muassasa xonalari sovuq, ko'mir bilan yoqiladigan pechlar issig'i



me'yordan ancha past. Shifokor va hamshiralari qalin kiyinib olgan. Suvni isitib beruvchi uskunalar ham ishlamaydi. Tadbirkor ko'mirxona qurib bermaganligi sababli olib kelingan ko'mir qoplarida, hovlida ochiq holda saqlanmoqda.

- Hozirgacha tadbirkor tomonidan 5 tonna ko'mir yetkazib berildi, - deydi muassasa o't yoquvchisi Shirin Esonov. - Ammo pechlar yaxshi o'rnatilmaganligi uchun xonalarni isitish muammo bo'lyapti. Ko'mirxonamiz yo'qligi tufayli keltirilgan ko'mirni hovlida saqlashga majburlamiz.

Muassasa tuman ko'p tarmoqli markaziy poliklinikasining filiali deb atalsa-da, aslida rasmiy hujjatlarda ko'rsatilmagan. Tepasidan internet tarmog'i o'tgan bo'lsa ham binoga tarmoq tortilmagan. Bino tomonida 3,5 Kvtli quyosh batareyasi o'rnatilgan, lekin ishlamaydi. Shifokorlik punkti atrofi devor bilan o'ralmagan.

Azamat oilaviy shifokorlik punkti-ning 3 nafar vrach va 37 nafar

### Kun muammosi

kichik tibbiy xodimi hududdagi Boylata, Oqtepa, Nurobod, Dehqonobod, Kaloxosa qishloqlarining 12 mingdan ziyod aholisiga xizmat qilib keladi. Oilaviy shifokorlik punkti ko'mir va o'tin bilan isitishga mo'ljallangan. Lekin xonalar yetarli darajada isitilmagan.

- 2024-yilda punktimizning isitish tizimi yangilanib, ko'mir va o'tin yoqishga mo'ljallangan pech o'rnatilgan edi, - deydi muassasa xodimi Gulnoza Shovqiyeva. - Lekin yaxshi ishlamagan uchun sovuq kunlarda xonalarda o'tirib ishlab bo'lmay qoladi. Majburlikdan elektr pech olib kelib ishlatamiz.

Tadbirkor tomonidan yoqish uchun 3 tonna ko'mir yetkazib berilgan. Biroq ayni vaqtda ko'mirxonada ozgina o'tin va 13 qop ko'mir qolgan, xolos.

- Kuniga 120-140 kilogramgacha ko'mir yoqamiz, - deydi oilaviy shifokorlik punkti o't yoquvchisi Husan Erdonov. - Ammo ko'mir sifat-siz. Tuproqdek bo'lib, pechda umuman yonmaydi. Natijada pechning issiqligi 50-60 darajadan oshmayapti, bu esa xonalarni isitmaydi. Isitish tizimi nosoz, issiq suvni haydovchi nasos o'rnatilmaganligi sababli 16

ta xonaning 2-3 tasigina isiydi.

Tibbiyot muassasasida markazlashgan toza ichimlik suvi yo'q, suv nasosi ishlamaydi. Suv isituvchi uskunalar o'rnatilmagan.

- Ikki yildan buyon tumandagi barcha tibbiyot muassasalarining isitish tizimlari bilan ta'minlash vazifasini o'z zimmasiga olganmiz, - deydi "Ishtixon-Bunyodkor" MChJ ish boshqaruvchisi Zarif Umirov. - Mavsum avvalida "Ko'mir ta'minot" MChJ Kattaqo'rg'on filialidan olib kelingan 270 tonna ko'mirning 120 tonnasini barcha muassasalarga tarqatib chiqdik. Qolgan omborxonalarda saqlanmoqda. Qaysi muassasada ko'mir tugagan bo'lsa, zudlik bilan yetkazib beramiz.

Tadbirkor ko'mir yetmay qolsa, yetkazib berishni o'z zimmasiga olgan. Biroq ko'mir yetkazib berilgan bilan pechlar nosoz bo'lsa, xonalar isitilmasa bunday sheriklikdan aholiga nima naf?

**Dilmurod TO'XTAYEV,**  
"Zarafshon" muxbiri.

# Tibbiy sug'urta

## TUG'RUQXONALAR FAOLIYATIGA QANDAY TA'SIR KO'RSATADI?

**Bu yil viloyatimizda davlat tibbiy sug'urta tizimi joriy etilishi bilan sohada qator o'zgarishlar bo'lishi kutilmoqda. Xo'sh, yangi tizim bepul xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan tug'ruq majmualarida qay tartibda amalga oshiriladi?**

- Bugungi kunda viloyat sog'liqni saqlash tizimida 16 ta tug'ruq majmuasi, 4 ta tumanlararo perinatal markazi (Kattaqo'rg'on shahar, Urgut, Past Darg'om, Payariq tumanlarida) hamda Ona va bola salomatligi markazi viloyat filiali faoliyat ko'rsatmoqda, - deydi viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Jamshid Jiyanov. - Ko'pchilikka yaxshi ma'lum, Samarqand shahar tug'ruq majmualariga tumanlardagi murojaat qiluvchilar jami ayollarning 60 foizini tashkil etadi. Shu nuqtai nazaridan Samarqand shahridagi tug'ruq majmualari har doim ortiqcha yuklama bilan faoliyat yuritadi. Vaholanki, belgilangan me'yor bo'yicha faqat salomatligida nuqson bo'lgan xomiladorlarga shifokor yo'llanmasi bilan shahardagi markaziy tug'ruqxonalarga kelishi mumkin. Shu bilan bir qatorda har bir homilador o'zi shifoxona tanlash huquqi ham mavjud. Shuning uchun shahar tug'ruqxonalarga murojaat qilayotgan ayollar agar ushbu tibbiyot muassasasi uni qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lsa, ushbu tibbiy muassasa xizmatidan foydalanishi mumkin.

Tibbiy sug'urta tizimining joriy etilishi tufayli tug'ruq majmualaridagi xizmatda ham o'zgarishlar

bo'lishi kutilmoqda. Demak, ayollar har doimgiday homiladorligining ilk oylaridan boshlab o'z hududidagi poliklinikalarda ro'yxatda turadi va ularning salomatligi shifokorlar nazoratida bo'ladi. Oilaviy shifokor homilador ayol salomatligiga qarab unga vaqti kelganda farzandini dunyoga keltirishi uchun tuman tibbiyot birlashmasiga yo'llanma beradi. Ayol kafolatlangan tibbiy paketga ega holda o'z hududida joylashgan tug'ruqxonaga murojaat qilishi kerak. Mabodo uning salomatligida o'zgarish bo'lsa, poliklinika shifokori ayolni tuman ko'p tarmoqli markaziy poliklinikasiga jo'natadi va o'sha yerda unga qaysi markaziy shifoxonaga borishi bo'yicha yo'llanma ajratiladi. Agar ayolning o'zi shahar tug'ruqxonalarga murojaat qilishni istasa, unga bu yerda pullik tibbiy xizmat ko'rsatiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, tug'ruq majmualarida bu tartib orqali shtatlar yoki o'rinlar qisqarishi ko'zda tutilmagan, aksincha, 2027-yilga qadar viloyat miqyosida tug'ruq majmualariga ehtiyojga ko'ra, yana 500 ta o'rin ajratilishi rejalashtirilgan.

**Gulruh MO'MINOVA.**

## Kasb-hunarga o'qishga

So'ragan edingiz...

# VAUCHER BERILADI

**— Ishsizman. Kasbga o'qish, xarajatini davlat qoplab beradi, deyishyapti. Shu to'g'rimi?**

— Ha, faqat oilangiz Kambag'al oilalar reestriga kiritilgan bo'lsa. Prezidentning 2025-yil 17-yanvardagi "2025-yilda aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan kambag'al oilalar a'zolarini kasb-hunarga o'qitish xarajatlarini qoplab berish bo'yicha vaucher tizimi joriy qilinishi belgilangan.

Hujjatga muvofiq, 1-fevraldan kasblarga o'qitish maqsadida ajratiladigan stipendiyalar nogironligi

bo'lgan shaxslarga, shuningdek, muddati 3 oydan ko'p davom etadigan o'quv kurslariga qabul qilingan Kambag'al oilalar reyestrtdagi oilalarning ihsiz a'zolariga to'lanadi. 2025-yilning 1-mayigacha esa ihsiz aholini, shu jumladan, ustuvor ravishda kambag'al oilalar a'zolarini kasb-hunarga o'qitish xarajatlarini qoplab berish bo'yicha vaucher tizimi joriy qilinadi.

Bu tartib Samarqand viloyati va Toshkent shahrida sinovdan o'tkazilishi belgilangan.

**Savolga Past Darg'om tumani adliya bo'limi Yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti Z.ZIYADULLAYEV javob berdi.**

26-yanvar - Xalqaro bojxona kuni

**26-yanvar Xalqaro bojxona kuni sifatida nishonlanadi. Ushbu sana 2018-yildan buyon yurtimizda ham O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati idoralari xodimlari kuni deb belgilangan. Ayni tadbir bojxona xizmatlarining birdamligini ifodalabgina qolmay, sohada yil yakunlarini sarhisob qilish, istiqbolli rejalar tuzishni ham anglatadi. An'anaga muvofiq, viloyat bojxona boshqarmasi o'tgan davrdagi faoliyati natijalari bilan bo'lishdi.**

Ma'lumotga ko'ra, 2024-yilda viloyat-imizdan davlat budjetiga undirilgan bojxona to'lovlari 3,4 trillion so'mni tashkil etgan. Tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida bojxona to'lovlaridan 1,81 trillion so'mga yaqin imtiyoz va tarif preferensiyalari qo'llanilgan. Bojxona to'lovlari kechiktirib to'lash tartiblarining soddalashtirilishi natijasida tadbirkorlarga 617,9 milliard so'm miqdordagi bojxona to'lovlari to'lashda yengillik yaratilgan.

O'tgan yilda viloyat bojxona boshqarmasi orqali tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari tomonidan 881,4 million AQSH dollarlik eksport amalga oshirilib, 2023-yilga nisbatan 95,7 million AQSH dollar yoki 12,2 foizga ko'paygan. Eksportning asosiy qismini meva-sabzavot mahsulotlari (248,8 million AQSH dollari), metal va ulardan tayyorlangan buyumlar (160,7 million AQSH dollari), oziq-ovqat mahsulotlari (104,2 million AQSH dollari) transport va uning ehtiyoj qismlari (102 million AQSH dollari) tashkil etgan. Tovarlar asosan Rossiya, Xitoy, Qozog'iston, Ozarbayjon, Turkiya hamda Tojikistonga ek-

# BOJXONA:

## KO'RSATKICHLAR OSHGAN,

## HUQUQBUZARLIKLAR HAM

sport qilingan. Import esa 2136,8 million AQSH dollariga teng bo'lgan.

Hisobot davrida "Samarqand aeroporti" chegara bojxona posti orqali harakatlangan yo'lovchilar soni ham sezilarli oshgan. Shuningdek, "Jartepa" chegara bojxona posti orqali harakatlangan avtotransport vositalari soni 2023-yilda 65,1 mingtani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda ularning soni 87,9 mingtaga yetgan.

Viloyat bojxonachilari tomonidan o'tgan yili 1658 ta huquqbuzarlik holati aniqlanib, 37 milliard 568,4 million so'mlik tovar va transport vositalarining noqonuniy aylanmasiga chek qo'yilgan. Jarayonda 1514 ta ma'muriy va 63 ta jinoyat ishi qo'zg'atilgan. Giyohvandlik vositalari bilan bog'liq 31 ta holatda 45,1 kilogramdan ortiq giyohvandlik moddasi aniqlangan. 10

holatda 1 milliard so'mdan ziyod qiymatga ega 17915 litr alkogol mahsuloti hamda 42 holatda 315 million so'mdan ziyod qiymatga ega 10739 quti tamaki mahsulotining noqonuniy aylanmasi to'xtatilgan.

Valyuta qimmatliklarining noqonuniy harakati bilan bog'liq 167 holatda 7 milliard 654 million so'mlik 517983 AQSH dollari aniqlangan. Shuningdek, 82 holatda noqonuniy aylantirishga qaratilgan 6,3 milliard so'mlik 11,4 kilogramm zargarlik buyumi aшыoviy dalil sifatida ushlab qilingan.

Psixotrop tabletkalar va kuchli ta'sir qiluvchi dorilarning noqonuniy aylanishini oldini olish maqsadida o'tkazilgan tadbirlarda 17 holatda 1542 dona psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi tabletkalar aniqlangan.

**Asqar BAROTOV tayyorladi.**



## Qulaylik qonunni buzishga asos bo'lmaydi

**Bugungi kunda Samarqand xalqaro aeroportida "Masofaviy bojxona nazorati" tizimi amal qilib, yo'lovchilar soddalashtirilgan tartibda bojxona nazoratidan o'tkazilmoqda. Jarayon fuqarolarga qo'shimcha qulaylik yaratishi barobarida qonunbuzilishlarining oldini olishga ham xizmat qilmoqda.**

Jumladan, 2024-yilda "Masofaviy bojxona nazorati" tizimi doirasida 2337 nafar yo'lovchi "qizil" yo'lakka yo'naltirilib, 1400 nafarida xavf o'z tasdig'ini topgan. Bunda "Samarqand aeroporti" chegara bojxona posti "Targetlash markazi" xodimlari 120 nafar yo'lovchini profayling va tahlillar natijasiga ko'ra "yashil" yo'lakdan "qizil" yo'lakka yo'naltirgan. Natijada 90 holatda xavf o'z tasdig'ini topgan va 108 ta holatda 284,5 million so'mlik bojxona kiritim orderi rasmiylashtirilgan.

O'tgan yil bojxonachilar tomoni-

dan 426 ta huquqbuzarlik holati aniqlangan bo'lib, qiymati 15559,3 million so'mlik tovar-moddiy boyliklar vaqtincha saqlovga olingan. Bojxona qonunbuzilishi holatlari 2023-yilga nisbatan 197 taga, moddiy qimmatliklar esa 5930,9 million so'mga ortgan.

2024-yilda Samarqand xalqaro aeroporti orqali 7787 ta (2023-yilda 5382 ta) aviareys amalga oshirilgan. Shundan ketuvchi reyslar 3849 tani, keluvchilari 3908 tani tashkil qilgan. 1171344 nafar fuqaro "Samarqand aeroporti" chegara bojxona posti orqali harakatlangan.







## Ta'lim-tarbiyada bolalar adabiyotining o'rni muhim

**Bolalar adabiyoti yosh avlodning har tomonlama yetuk, ruhan tetik, axloqan pok, jasur va vatanparvar bo'lib ulg'ayishiga xizmat qiladi. Yozilgan asar bolaning rivojlanish bosqichlariga mos kelishi, qalblarga chuqur ta'sir ko'rsatishi, yorqin g'oyalarni ilgari surishi, asosiysi, sodda, ravon va tushunarli tilda bo'lishi lozim.**

Bulardan tashqari, tarjima san'ati orqali ham bolalar adabiyoti yanada boyiydi. Dunyo adabiyotining durdona asarlari, masalan, Mark Tvenning "Tom Soyerning sarguzashtlari" yoki D.Defoning "Robinzon Kruzo"si o'zbek bolalari sevib o'qiladigan kitoblari bo'lib qoldi. I.Krilovning masallari va A.Pushkinning "Baliqchi va baliq haqidagi ertak" kabi asarlarning o'zbek tiliga tarjimalari o'zbek o'quvchilari tomonidan sevib o'qiladi.

Keyingi yillarda men faoliyat yu-

ritayotgan Samarqand davlat chet tillar instituti professor-o'qituvchilari tomonidan turli asarlarni chet tillardan o'zbek tiliga, o'zbek tilidan xorijiy tillarga tarjima qilish an'anaga aylandi. Ayni paytda iqtidorli talabalarimiz bilan birgalikda bolalar uchun yozilgan qiziqarli badiiy asarlarni tarjima qilishni boshladik. Bu bilan mamlakatimizda jahon bolalar adabiyotiga bo'lgan ehtiyojni qondirishga hissa qo'shishni maqsad qilganmiz.

**Bahodir ABDURASULOV.**

## "Shifobaxsh o'simliklar"

Yangi kitoblar

**Yurtimiz tuprog'ida o'sadigan har bir g'iyoh turli kasalliklarni davolashda qo'llaniladi. Ularning shifobaxsh xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar asrlar davomida ajdodlardan avlodlarga o'tib kelmoqda. Dorivor o'simliklarga oid bir qancha kitoblar muallifi Tal'at Abdullayevning tavsiyalari ana shunday an'ana va tajribalarga asoslanganligi bilan ajralib turadi.**

Muallifning yaqinda "Fan bulog'i" nashriyatida chop etilgan "Shifobaxsh o'simliklar" risolasida Samarqand tuprog'ida o'sadigan bir qancha shifobaxsh o'simliklar haqida qimmatli ma'lumotlar jamlangan. Risolada mevalarning inson organizmiga ta'siri, dorivor o'simliklar, xususan, qora andiz, arpabodiyon, pista, do'lana, chilonjidaning foydasi va ulardan tayyorlangan damlama, darmondorilarning shifobaxsh xususiyatlari bayon qilingan.

## "Daryodil"

**E'tibor Mahmudovanning shu nomli she'riy kitobi chop etildi. Unga ijodkorning keyingi yillarda yozilgan she'rlari kiritilgan.**

Xususan, kitobdan o'rin olgan "Diyorim", "Do'stlik rishtasi", "Onamdek mehribon" she'rlarida Vatanga muhabbat, ota-onaga hurmat, do'stga sadoqat kabi insoniy tuyg'ular tarannum etiladi.

Muallifning bugungacha "Samarqand tarovati", "Umr chirog'i" kabi she'riy kitoblari chop etilgan.

**S.MARDIYEV.**

## Kamtarlik - olimning eng ulug' mukofoti

Yonimizdagi odamlar

**Zahmatkash olim, tibbiyot fanlari doktori Farhod Nosirov 85 yoshga to'ldi. Olimning uzoq yillik samarali mehnati va el orasida topgan obro'-izzatida uning oilasidagi tarbiyaning o'rni katta. Ustoz Farhod Nosirov yurtsevar va fidoyi insonning o'g'li sifatida otasi, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Shodi Nosirovdan ulgi olib kamol topdi.**

Farhod Nosirov 1965-yilda Samarqand tibbiyot institutini muvaffaqiyatli tugatgach, avval Bulung'ur, keyin Payariq tumanlarida nevrpatolog, qishloq ambulatoriyasining bosh shifokori bo'lib ishladi. 1967-yilda ustoz Boboqul Rustamovning taklifiga ko'ra, Sog'liqni saqlash vazirligi tasarrufidagi parazitologiya ilmiy-tekshirish instituti aspiranturasiga o'qishga kirdi. Bu dargohda kichik ilmiy xodimlikdan institut direktori vazifasigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdi. 1976-1979-yillarda esa Samarqand tuman-tibbiyot bo'limi mudiri, 1979-1981-yillarda Jizzax tumani va shahrida mas'ul lavozimlarda faoliyat ko'rsatdi. 1982-yilda Farhod Shodiyevich Samarqand davlat tibbiyot institutida faoliyatini davom ettirib, 20 yil davomida ushbu dargohda turli lavozimlarda fidoyilik bilan mehnat qildi.

Tajribali amaliyotchi ishdagi bilim va ko'nikmalarini ilmiy nazariya bilan uyg'unlashtirdi. U 1972-yilda nomzodlik, 1995-yilda doktorlik dissertatsiyasini nafaqat O'zbekiston, balki Germaniya, Fransiya, Vengriya, Rossiya, Belarus, AQSh, Litva kabi davlatlarda e'tirof etildi. U infeksiyon va parazitaxastliklar muammosiga bag'ishlangan 120 dan ortiq ilmiy izlanishlar, jumladan, 14 ta o'quv-uslubiy qo'llanma, 35 ta ilmiy-om-mabop maqola chop etirdi.

Faoliyati davomida hukumatning ko'plab mukofotlari, ko'krak nishonlari bilan taqdirlangan olimni el orasida kamtarlik, samimiylik, fidoyilik nomli nishonlari alohida bezab turadi.

Bir umr fidoyilik va halollik bilan mehnat qilgan olim bugun ham kimgadir foydam tegsa, deydi. Samarqand



shahrida o'zi istiqomat qiladigan Mevazor mahallasida "Nuroni" jamg'armasi va-killari bilan jamoat ishlarida hamon faol, maslahat va takliflari bilan mahalla ahlini uyg'olikka va hamjihatlikka chorlab turadi. Turmush o'rtog'i (rahmatli), tibbiyot fanlari nomzodi Rohatoy Meliboyeva bilan saodatli umr kechirdilar, uch nafar farzandni tarbiyalab, voyaga yetkazishdi. Nevvara va evaralarning bobosi bo'lib, keksalik gashini surayotgan olimga sihat-salomatlik, xotirjamlik va uzoq umr tilaymiz.

**Donaqul TOSHBOYEV, "Nuroni" jamg'armasi viloyat bo'limi raisi o'rinbosari, Iskandar TEMIROV, faxriy jurnalist.**

## Tarjimonning kitobi



**Viloyat axborot-kutubxona markazida "Qalam" nashriyoti tomonidan chop etilgan, mohir tarjimon, jurnalist va shoir Fozil Shukurovning "Dilro'shnoi" nomli kitobi taqdimotiga bag'ishlangan adabiy uchrashuv bo'lib o'tdi.**

Unda samarqandlik shoirlar, yozuvchilar, jurnalist va adabiyotshunos olimlar, SamDU talabalari ishtirok etdi.

Tadbirda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist Farmon Toshov, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limi raisi Toshpo'lat Tugalov hamda ijodkorlar adabiyotning inson kamolotida tutgan o'rni, Fozil Shukurov ijodining o'ziga xos jihatlari

va yangi kitob haqida to'xtaldi.

Fozil aka ijodi bilan qariyb o'ttiz yildan buyon tanishman, - deydi Asadulla Shukurov. - U so'zning betakror qudratini yurakdan his qila oladi, o'z ustida tinimsiz ishlaydi va buning natijasida har bir she'ri pishiq-puxtaligi, tasvirning tiniqligi va yuksak badiiy saviyasi bilan o'quvchi qalbidan joy oladi. Darvoqe, qo'limizdagi kitobning chop etilishida Fozil aka faoliyat yuritayotgan "Ovozi Samarqand" gazetasi hissasi katta.

Kitob taqdimotida ijodkorning hayot, ona, yoshlik, mehr-muhabbatni madh etuvchi she'rlaridan namunalari o'qildi.

**O'z muxbirmiz.**

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

### DA'VOLAR BO'LSA...

O'zbekiston stol tennis federatsiyasi konferensiyani 2022-yil 2-avgustdagi 2-son yig'ilish bayoni qaroriga asosan O'zbekiston stol tennis federatsiyasi markazlashgan holda faoliyat yuritib kelmoqda. 2025-yil 20-yanvar kuni O'zbekiston stol tennis federatsiyasi ijroiya qo'mitasi yig'ilishining "Federatsiyani hududiy boimlarining faoliyatini o'rnatilgan tartibda ixtiyoriy tugatish to'g'risida"gi qaror qabul qilingan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, O'zbekiston stol tennis federatsiyasi Samarqand viloyat hududiy bo'limi (STIR: 303370242, KTUT: 25604992, 2015-yil 18-iyunda 163-son guvoohnoma bilan Samarqand viloyati adliya boshqarmasida ro'yxatga olingan) 2025-yil 20-yanvar kunidan ixtiyoriy ravishda tugatilib, davlat reestrigan chiqarilmogda.

Qo'shimcha ma'lumotlar uchun O'zbekiston stol tennis federatsiyasi Samarqand viloyat hududiy bo'limiga murojaat etishingiz mumkin.

**Manzili: Samarqand shahri, Gagarin ko'chasi, 85-"A" uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius G'afforov Ulug'bek Rahimjonovich notarial idorasida marhum Karimov Xasanga (2014-yil 15-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning G'afforov Ulug'bek Rahimjonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 18-uy, 14-xona.**

Toyloq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hasanov Aloviddin G'iyosiddin o'g'li notarial idorasida marhum Boboxonova Nilufar Azizxonovnaga (2024-yil 28-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hasanov Aloviddin G'iyosiddin o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Toyloq tumani Toyloq shaharchasi.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Zakirova Muazamga (2023-yil 30-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.**

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasida marhum Babayev Amonberdi Xudoyberdiyevichga (2023-yil 19-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand tumani Oqmachit mahallasi, Bag'rikenglik ko'chasi, 4-uy.**

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida

marhum Mukadasov Ayason Azizovichga (2015-yil 20-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.**

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Abduraxmanov Shaymanga (2018-yil 24-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.**

Oqdaryo tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Sa'dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasida marhum Doliyev Shavkatga (2024-yil 13-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Sa'dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Oqdaryo tumani Loyish shaharchasi Amir Temur ko'chasi.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Djurakulga (2016-yil 2-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning

### RAHMAT SIZLARGA SHIFOKORLAR!

*Inson hayoti, salomatligi hamma narsadan aziz. Shu bois ham mamlakatimizda davlat qudrati va boyligini belgilovchi muhim omillardan biri - tibbiy xizmatni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.*

*Nafaqadaman, yoshim yetmish yettida. Yaqinda yo'llanma asosida kelib, viloyat nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash markazida yotib davolandim. Tajribali shifokorlarning to'g'ri olib borgan muolajalari tufayli salomatligim yaxshilandi.*

*Markazda yaratilgan sharoitlar, shifokorlarning muomalasi havas qilgudek. Markaz direktori Akram Berdiyev, direktor o'rinbosari Olga Bizina, direktor kotibasi, huquqshunos Gulshana Akaboyeva, bo'lim boshlig'i Nigora Jumayeva, meni davolagan shifokor Nilufar Jabborova, hamshiralar Yulduz Usmonova, Mohinur To'raqulova, Sanobar Suvonova, Sevara Rabbimova hamda shifoxonaning boshqa xodimlaridan juda minnatdorman.*

*Barchangizga sihat-salomatlik, oilaviy baxt, el salomatligi yo'lida amalga oshirayotgan ishlaringizda muvaffaqiyat tilayman. Ilohim qo'lingiz dard ko'rmasin, aziz shifokorlar.*

**Sayfiddin SHODMONOV, Qushrabort tumani, faxriy o'qituvchi.**

Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasida marhum Kabilov Masut Pardayevichga (2020-yil 29-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 36-uy.**

### TOPGANGA MUKOFOT!

Samarqand viloyat ichki ishlar boshqarmasidan 2020-yil 26-oktabrda Raximbo-

boyev Farrux Iloxovichga berilgan pensiya guvohnomasi Samarqand shahri hududida tushirib qoldirilgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.

**Telefon: +99897-223-40-77.**

Shartnomaga asosan harbiy xizmatchi Saparaliyev Meyrbek Nurlan o'g'lining harbiy guvohnomasi Samarqand shahri hududida tushirib qoldirilgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.

**Telefon: +99891-700-93-22.**

Shartnomaga asosan harbiy xizmatchi Ergashov Ravshan Shuxrat o'g'lining harbiy guvohnomasi Samarqand shahri hududida tushirib qoldirilgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.

**Telefon: +99897-406-98-88.**





INTERNET

OVUNCHOQ EMAS!

Ha, u bizga g'oya va maqsadlarimiz, istagimizni nur bilan yoritish, dunyoqarashimizni o'zgartirish uchun manba yoki vosita bo'lishi kerak aslida. Qo'l telefoni ham uzoq'imizni yaqin qiladigan olis bilan bog'lanish manbai. Uning imkoniyatlari mafkuramizga ziyon qilmasligi, unga bog'lanib, qul bo'lib qolmasligimiz kerak. Hozir juda ko'pchiligimiz mobil telefondan bir qadam ham uzoqlasholmaydigan bo'lib qoldik.

Gaplrimdan ensangiz qotmasin. Ayni damda bolangizga qarang: u nima bilan band? Telefon ichiga kirib ketguday darajada, siz qolib, taskin-tasalini shu zormandadan topayotgan bo'lsa, xavotirim bejiz emasligini his qilasing.

Yoki farzandingiz telefon ko'rish o'rniga kitob mutolasi bilan bandmi? Ota-onalarning o'zi o'rnak bo'lib kitob o'qiyaptimi? Xonadoningizda shunday muhit hukmron bo'lsa, xavotir olmasangiz ham bo'ladi. Qaniydi shunday bo'lsa...



**Qo'chqor NORQOBIL,**  
yozuvchi.

SO'FIYONlik  
IJODKOR PEDAGOG

Urgut tumanining viqorli tog'lar, chashma suvi va baland chinorlari kishiga ilhom beradi. Shu sababli tumanda taniqli shoir va yozuvchilar yetishib chiqqan. Ulardan biri G'aybiddin Fazliyevdir.



G'aybiddin Fazliyev 1944-yilda So'fiyon mahal-lasida dunyoga keldi. U maktabda o'qib yurgan chog'laridan she'rlar yoza bosh-ladi. Maktabni a'lo baholar bilan bitirgach, Samarqand davlat universitetining filologi-ya fakultetiga o'qishga kirdi. Undagi shijoat, yetakchilik talabaliq chog'laridan namoyon bo'la boshladi.

Dastlab u tuman maktablarida mas'uli-yatli vazifalarda ishladi. Keyinchalik Sa-marqand davlat universitetining 3-aka-demik litseyida rahbarlik qildi. U litseyga bilimli o'quvchilarni saralab olar, o'qituv-chilar ham tanlov asosida ishga qabul qilinardi. Shuning uchun litseyini tamomlab chiqqan o'quvchilarning deyarli barchasi oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirardi.

G'aybiddin domlaga qator yillar ta'lim sohasida mehnat qilgani, fidoyiligi inobat-ga olinib, "O'zbekistonda xizmat ko'rsat-gan xalq ta'limi xodimi" unvoni berildi.

**Murod QURBONZODA.**



Keksa hamkasb ijodidan

MAJNUNTOL

Anhor yoqasida bir tup majnuntol,  
O'sardi shoxlari egilib suvga.  
Men uni suyardim topib bir timsol,  
O'xshatardim o'zim sevgan suluvga.  
Ilk sevgi qalbiga bo'lganda mehmon,  
Uning og'ushida xayol surardim.  
U menga so'yoldi sabo esgan on,  
Mendan "oshiqmisan" deya so'rardi.  
Visolning mast-alast shirin damlari,  
Uning panohida o'tdi birma-bir,  
Majnuntolning sodiq qirq kokillari,  
Bizni saqlar edi yot nazardan sir.  
Ammo shum taqdirning achchiq qismati,  
Majnuntol bag'rini ketdi tilkalab,  
Uni yashin urdi ilk bahor payti,  
Qayta yuz ochmadi birglari yashnab.  
Mening ishq niholim urmagandek nish,  
U ham mungli boqar ma'yus yurakka,  
Ikkiniz turibmiz... g'arib ko'rinish,  
Uning shoxlari yo'q, men esa yakka...

Donoga ishora kifoya  
(Xalq maqoli)

**Hazratning va'dasi-yu, Omonning gapiga kirib, o'likni hovuzda yuvganimiz**dan beri o'zimni o'zim ko'yib yashayman. Shunaqa ham besavod bo'lamanmi?! «Alif»ni «kaltak» deb o'qiganimdan keyin meni kim ham o'ziga yaqin olardi. Ilmning yombisini, gapning yog'lisini bilgichga hamma zamonda davraning to'rini berishgan. Men bo'lsam, hamon Boy otaning eshigida bir bo'lak suvi qochgan non-u kiyik o'tidan damlangan choy bilan umrim o'tyapti. Agar Omon shaharga borib kelgach, ko'rgan-kechirganlarini aytib bermaganida men hali ham o'qishni faqat xayolda tugib yuraverarkanman. Lekin o'qishning ham o'zi bo'lmaydi. Bu yog'ini keyin aytib beraman...

Xullas, Omon o'z ko'zi bilan ko'rgan-mi yoki el-ulusning orasida yurgan gapni menga o'zini qahramon qilib ko'rsatib gapirdimi, bilmayman, o'sha «J» va «M» voqeasiga guvoh bo'lganini aytib berdi.

- Shaharga kirib borganimda itday och edim. Birovdan non so'lashga orim qo'ymadi, ish so'lashga - holim. Oyog'imni sudrab borarkanman, musiqa ovozi eshitilib qoldi. O'sha tomon yurdim. Haybati naq madrasaday keladigan to'yxonaga odamlar kirib ketishayotgan ekan. Avvaliga ikkilandim, keyin «ming chog'li odamning orasidan meni taniridi», deb to'daga qo'shilib ketdim.

Voh! Aytsam ishonmayman. O'zimni Susambilga kelib qolgan eshshakday his qildim. O'tning bo'lig'i, sutning quyug'i deb yeyaveribman, yeyaveribman. Ham-masi shundan keyin boshlandi. To'yxonadan to'yib, hech kimning nazariga yo'liqmay chiqdim-u, baloga yo'liqdim. Ichburug' bo'ldim-ov, deb chor tarafga zir chopdim. Yaxshiyam, yaxshilar bor. Naq peshanamda turgan hojatxonani izlab yurganini ko'rib, miyig'ida kulib qo'yd-yu, «mana shu» deb ko'rsatib qo'yd. E, Qoravoy, savodim bo'lsa shunday izza bo'larmidim. Aslo!

Izzaning yomoni keyin bo'ldi. Bir ayol «M» deb yozilgan eshikka kirib ketdi.

- Savodim bo'lmasa, «M» deb yozil-ganini qayerdan bila qolding?

- Bo'riboyvachaning rezina ship-pagini esla. Ustida shunaqa yozuvi bor edi. «Qaranglar, «M» deb atay yozdirib keldim. Bu «meniki degani», degan edi.

- Ha, esladim. «Men kiysam, «meniki» degani bo'larkan-da» degandim. Ke-yin-chi?

- Keyin men kapalakning rasmiga o'xshagan belgi turganiga kirib bordim. Bir ayol shart yo'limni to'sdi. Bib-binoyi ayol. Oqposhshoning tilida bir nimalar dedi. O'lay agar tushungan bo'lsam.

Boy otaning saqlab qo'yadigan pullarini o'qiydigan tilni bilmasam, men qanaqa odam bo'ldim?

- Boy ota, - dedim tushlik qilayotgani-da oldiga borib (boshqa vaqti borsangiz, «Nega ishda emassan?» deb xunob qiladi-da).
- Gapir, - dedi qo'lidagi ilikni qo'qar-kan. - Yana qayerga o't ketdi?
- E, Boy ota, bu safar yuragimga o't ketdi.
- Bitta-yarimni sevib qoldingmi? - Boy ota o'zi topgan savoldan o'zi xix-xix qilib kulib yubordi.
- Yo'q... o'qisammi degandim.
- Senmi?
- Ha.

Nasr

- Siz yanayam boy bo'lib ketasiz, Boy ota. Davlatningiz ziyoda bo'ladi.
- Aytyapman-ku, aqling tarasha deb. Bilasanmi, bitta repetitorga qancha pul berish kerakligini?
- Bilaman, Boy ota, ikki oyligimni.
- Bilsang, chamanda gul ochilmasin, uqdingmi? - Boy ota barmoqlarini bukib, g'uncha qildi. - Juda ham o'qiging kelsa, ana maktabga bor. Savodingni qaytadan chiqar. Innaykeyin, bola, bitta repetitor bilan o'qishga kirib bo'lmaydi. Bo'riboyvachchaga o'xshab uchtaga borishing kerak.
- Unda Bo'riboyvachchangiz ham maktabda o'qiyversam bo'lmaydimi? Repetitor pul safলামdingiz.
- Hov, itvachcha, ishtahamga tuz sep-guncha, achigan miyangni ishlat. Tas-viriy san'atni bitirgan bola ingliz tilidan, «obshtexnika»ni tamomlagan ximiya-bi-ologiyadan dars berayotgan maktabda o'qiyotgan bolamga repetitor yollamay, seni yollayinmi?
- Boy ota shu gapi bilan mening ham ishtahamga tuz sepd. U tuzlar yur-agimgacha borib yetdi. Onam qalpog'im ostidagi tuxumni o'qlov bilan chaqib qo'ygandagi o'g'irlik qilganimdan vijdonim qiynalib, uyimni tark etgan edim. Endi ba'zi maktablardagi o'nlab bolalarning savodi haminqadar bo'lishini o'yab qiyn-algan vijdonim bilan qishloqni tark etay-mi? Dod deyin desam, ovovim chiqmay-di. Butun boshli qishloq urug'-urug'chilik qilib to'rtga bo'linib olgan. Kimdir boshini biriktirsa-yu, o'sha maktabdan o'qib chiqayotgan yigit-qizlarni olib borib, «Bizga shunaqa kadrlar kerak» desa... Oliyog'lar o'rin ajratib o'tiribdi-ku! «Kontrakt bo'lib qolsa-chi?» deysizmi? Eh! Ota-bobomiz uylarini hashar bilan qurgan-ku, to'g'rimi?
- Nega jim bo'lib qolding, gapirmay-sanmi?! - Boy otaning savoli xayollarimni to'zgi'tib yubordi.
- Nima deyin, Boy ota? Mening aqlim tarashadek qotib qolgan. O'qiyman, til o'rganaman, deb hazillashdim.
- Ha-a, shunaqa de. Unda nega kelding?
- Ilik yog'idan yegim keluvdi. Shu-naqa ketaversak, iligimiz qurib qoladi-da, Boy ota.



**Shum bolaning maktabini Asliddin MUSTAFO oqqo ko'chirdi.**

YOLG'IZ YO'LOVCHI

Bu yo'ldan ming o'tdim ehtimol,  
Bugungisi- bir ming birinchi.  
Yakka hamroh -ko'kdagi hilol,  
Ko'chada men- yolg'iz o'tkinchi.  
Ketmoqdaman, yo'lbo'lovchi - men,  
Xayollarim cho'zilgan karvon.  
Daqiqalar asrlarga teng,  
Karvonimga urayotgan bong.  
Karvonboshi shoshar manzilga,  
Xayolini tezlar, qamchilar.  
Ammo, qarang, so'nggi zanjirga,  
Tirkalgan nor ortiga tortar.  
Yo'lbo'lovchining ortar xunobi,  
-Chuh, jin urgur, tezroq yursang-chi!  
Imillashga chidamay tobi,  
Jahli chiqib tortadi qamchi.  
Chaqnab ketar qamchining zarbi,  
Seskantirib yarim dunyoni...  
Olis yo'lda horigan kabi,  
Qo'zg'aladi xayol karvoni.  
Yodga tushar shu dam birma-bir,  
Yoshlik, orzu, sevgi, xotira...  
Dunyo esa aylanadi gir,  
O'tganini qaytarmay sira.  
Bu yo'ldan ming o'tdim ehtimol,  
Bugungisi- bir ming birinchi.  
Yakka hamroh - ko'kdagi hilol,  
Ko'chada men sirli o'tkinchi.

MEN TUG'ILGAN KUN

Zalvorli bulutlar to'kdilar ko'z yosh,  
Go'yo etkikanday qutlug' bir baxtdan.  
So'ng asta jilmayib munavvar quyosh,  
Tarovat ulashdi samoviy taxtdan.  
Shunda hokim bo'ldi poyonsiz jimlik,  
Dovullar tinchigan moviy zaminda.  
Qanchalar go'zallik, qancha ezgulik,  
Mujassam bo'lmishdir lahzaviy onda.  
Va hech kim, hech narsa etmagan jur'at,  
Dunyo sukunatin buzmoqqa bu dam...  
Biling, bir go'dakning ingasi faqat,  
Ushbu sukunatni buzib yiqitgan.  
Borliq unga peshvoz chiqqandi butun,  
Bahor edi shunda-men tug'ilgan kun!  
Qishloqda o'sganman, netay, yashirib,  
Tuproq oshab bunda qirlarni quchdim.  
Sarpoychan yugurib, varrak uchirib,  
Orzu osmonida o'zim ham uchdim.  
Qaldirg'ochlar endi bo'lganda mehmon.  
Borliq to'lganida nash'ali isga,  
Mening varragimni uzib nogohon,  
Yellar olib ketdi uni olisga...

**Norbobo SHAKAROV,**  
Qo'shrabot tumani.

MATBUOT UYI  
**Zarafshon**  
С АМАРКАНДСКИЙ  
В ЕСТНИК

**MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi**

**Bosh muharrir: Farmon TOSHEV**

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nasr 100. Indeks 438. 14 217 nusxada chop etildi. Buyurtma 41. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

Y.MARQAYEV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



9 772 010 667 009

Sotuvda narxi kelishilgan holda